Tadqiqotda muammoning murakkabligi va ko'p qirraliligi hisobga olinib, bir nechta ilmiy usullar kombinatsiya qilingan holda qo'llangan. Har bir usul ma'lum tadqiqot vazifasini bajarishga yo'naltirilgan.

Xarajatlar-foйда tahlili (CBA). Ushbu usul ETS ni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholashning asosiy instrumenti sifatida qo'llanildi. CBA doirasida ETS ning to'g'ridan-to'g'ri xarajatlari (tizimni yaratish va boshqarish xarajatlari, korxonalarga yuklanuvchi muvofiqlik xarajatlari) va foydalari (emissiya kvotalarini auksion orqali sotishdan tushadigan byudjet daromadlari, emissiya qisqarishining ijtimoiy foydasi – uglerodning ijtimoiy qiymati, Social Cost of Carbon – SCC orqali hisoblangan) solishtirma ravishda baholandi. Uglerodning ijtimoiy qiymati sifatida Interagency Working Group on Social Cost of Greenhouse Gases tomonidan tavsiya etilgan o'rtacha ko'rsatkich – 1 tonna CO₂ ga 51 AQSh dollari qo'llanildi [12].

Ssenariy modellashtirish. O'zbekiston uchun ETS ning potentsial iqtisodiy ta'sirini baholash maqsadida uchta ssenariy ishlab chiqildi:

1. Past ambitsiya – faqat energetika sektori qamrab olinadi, intensivlikka asoslangan ko'rsatkichlar, past uglerod narxi (5–10 AQSh dollari/tCO₂);
2. O'rtacha ambitsiya – energetika va yirik sanoat sektorlari qamrab olinadi, aralash kvota taqsimlash, o'rtacha uglerod narxi (15–25 AQSh dollari/tCO₂);
3. Yuqori ambitsiya – energetika, sanoat, transport va binolar sektorlari qamrab olinadi, absolyut cheklash, yuqori uglerod narxi (30–50 AQSh dollari/tCO₂).

Har bir ssenariy uchun emissiya qisqarish hajmi, byudjet daromadlari, YalMga ta'sir va sektorlar bo'yicha muvofiqlik xarajatlari hisoblandi.

Qiyosiy iqtisodiy tahlil. EU ETS (2005 yildan, to'rtinchi bosqichda), Xitoy milliy ETS (2021-yildan), Janubiy Koreya K-ETS (2015 yildan) va Qozog'iston ETS (2013-yildan) tizimlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari – uglerod narxining dinamikasi, byudjet daromadlari, emissiya kamayish sur'ati, YalMga ta'sir va sanoat raqobatbardoshligiga ta'sir – qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu mamlakatlar rivojlanish darajasi, iqtisodiy tuzilma va energetika tarkibi bo'yicha O'zbekiston uchun turli darslarni taqdim etadi.

Ma'lumotlar bazasi. Tadqiqotda quyidagi manbalar ishlatildi: O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi, Energetika vazirligi va Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining emissiya va energiya balans ma'lumotlari, Jahon banki, ICAP, ADB, UNDP ning ochiq ma'lumotlari, EU ETS va Xitoy milliy ETS rasmiy statistikasi. Tadqiqot davri 2018–2024-yillarni, prognoz davri 2025–2035-yillarni qamrab oladi.

Marjinal qisqartirish xarajatlari (MAC). Har bir ssenariy uchun energetika va sanoat sektorlaridagi asosiy texnologik chora-tadbirlarning MAC baholandi. Bu korxonalar qaysi chora-tadbirlarni birinchi amalga oshirishini aniqlash va uglerod narxining optimal darajasini belgilash uchun muhim. Masalan, tabiiy gaz turbinalarining samaradorligini oshirish (MAC: 5–15 AQSh dollari/tCO₂), qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish (MAC: 10–25 AQSh dollari/tCO₂), uglerodni tutib qolish va saqlash texnologiyalari (CCS, MAC: 40–80 AQSh dollari/tCO₂).

Diskontlash va vaqt istiqboli. CBA doirasidagi kelajakdagi barcha xarajatlar va foydalar yillik 5% diskont stavkasi bo'yicha hozirgi qiymatga (NPV) keltirildi. Baholash davri 2028–2040-yillarni qamrab oladi. Sezuvchanlik tahlili asosiy parametrlar – uglerod narxi, emissiya qisqarish sur'ati, diskont stavkasi – ning o'zgarishiga natijalarni tekshiradi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro tajribani iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish O'zbekiston uchun kutilishi mumkin bo'lgan natijalarni prognozlashda muhim asos hisoblanadi. 1-jadvalda asosiy ETS tizimlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. Asosiy ETS tizimlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari (2023–2024-yillar)

Ko'rsatkich	EU ETS	Xitoy ETS	K-ETS (Koreya)	Qozog'iston ETS
Yillik daromad	~38,8 mlrd yevro (2024)	~0,2 mlrd AQSh dollari	~0,1 mlrd AQSh dollari	Ma'lumot cheklangan
Uglerod narxi	~65 yevro/tCO ₂	~10 AQSh dollar/tCO ₂	~8–10 AQSh dollar/tCO ₂	~1–2 AQSh dollar/tCO ₂
Emissiya qisqarish (kumulyativ)	~35–40%	Baholanmoqda	~7% (2015–2020)	Ma'lumot cheklangan
YalMga ta'sir	Sezilmas (<0,1%)	Sezilmas	O'rtacha (-0,2%)	Baholanmagan
Kvota taqsimlash usuli	Asosan auksion (~57%)	100% bepul	97% bepul	100% bepul

Manba: ICAP [1], EEA [14], ADB [15] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvaldan ko'rinadigan muhim tendentsiya shuki, ETS tizimlarining iqtisodiy samaradorligi tizim dizayni va yetuklik darajasiga bevosita bog'liq. EU ETS to'rtinchi bosqichga (2021–2030) o'tgandan so'ng auksion ulushi sezilarli oshdi va 2024-yilda 38,8 milliard yevro daromad keltirdi [14]. Bu daromadning katta qismi iqlim va energetikaga oid loyihalarga yo'naltirilgan: "Innovatsiya fondi" (2,4 mlrd yevro), "Modernizatsiya fondi" (6,3 mlrd yevro) va "Tiklanish va barqarorlik mexanizmi" (5,6 mlrd yevro) [14]. Shu bilan ETS nafaqat emissiyani tartibga solish vositasi, balki yashil o'tish uchun moliyaviy resurs yaratish mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

Xitoy tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida ahamiyatga ega. Xitoy ETS hozirda faqat elektr energiya ishlab chiqarish sektorini qamrab oladi va intensivlikka asoslangan ko'rsatkichlardan foydalanadi, bu esa iqtisodiy o'sishni cheklamasdan emissiya samaradorligini rag'batlantiradi [15]. Kvotalar 100 foiz bepul taqsimlanadi va uglerod narxi nisbatan past – 2024-yil boshiga kelib 70–80 yuan (taxminan 10 AQSh dollari) atrofida bo'lgan [15]. Goulder va hammuallif [16] tomonidan ishlab chiqilgan ko'p sektorli umumiy muvozanat modeli shuni ko'rsatadiki, Xitoy ETS ning ekologik foydalari uning iqtisodiy xarajatlardan sezilarli darajada oshadi. Biroq, absolyut cheklash (cap-and-trade) tizimiga nisbatan Xitoyning intensivlikka asoslangan yondashuvining iqtisodiy samaradorligi past bo'lishi mumkin, ayniqsa yashirin subsidiyalar mavjud bo'lganda.

Qozog'iston tajribasi esa ehtiyotkorlik darsi sifatida qaralishi lozim. Qozog'iston 2013-yilda Markaziy Osiyoda birinchi ETS ni ishga tushirgan, biroq iqtisodiy beqarorlik va neft narxlarining tushishi fonida tizim bir necha marta to'xtatilgan va 2018-yilda qayta ishga tushirilgan [1]. Asosiy muammo – kvotalarning ortiqcha taqsimlanishi va monitoring tizimining zaifligidir. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, ETS ni iqtisodiy shart-sharoitlarni to'liq hisobga olmagan holda joriy etish uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Uchta ssenariy bo'yicha modellashirish natijalari O'zbekistonda ETS ning potentsial iqtisodiy ta'sirini turli nuqtai nazardan ko'rsatadi. Modellashirish uchun baza ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar qabul qilindi: O'zbekistonning yillik issiqxona gazlari emissiyasi – taxminan 209 million tonna CO₂ ekvivalenti; energetika sektori ulushi – 64 foiz (taxminan 133 million tonna); sanoat sektori ulushi – taxminan 14 foiz; YalM – taxminan 80 milliard AQSh dollari (2023-yil) [3, 13].

2-jadval. O'zbekiston uchun ETS ning iqtisodiy ta'siri: ssenariy tahlili (2030-yilga prognoz)

Ko'rsatkich	Past ambitsiya	O'rtacha ambitsiya	Yuqori ambitsiya
Qamrov (sektorlar)	Energetika	Energetika + sanoat	Energetika + sanoat + transport + binolar
Uglerod narxi (AQSh dol./tCO ₂)	5–10	15–25	30–50
Yillik emissiya qisqarishi (mln t CO ₂)	8–12	18–25	30–45
Yillik byudjet daromadi (mln AQSh dol.)	150–300	500–900	1200–2500
YalMga ta'sir (%)	-0,05 dan -0,1	-0,2 dan -0,5	-0,5 dan -1,2
Ijtimoiy sof foyda (SCC hisobida)	Ijobiy	Sezilarli ijobiy	Noaniq (xavflar yuqori)

Manba: muallif tomonidan xalqaro tajriba ko'rsatkichlari va O'zbekiston ma'lumotlari asosida hisoblangan.



Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston uchun eng maqbul boshlang'ich ssenariy – “Past ambitsiya” hisoblanadi. Bu ssenariy bo'yicha ETS faqat energetika sektorini qamrab oladi, bu sektor esa umumiy emissiyaning 64 foizini tashkil etadi va nisbatan kam sonli, lekin yirik korxonalarni (taxminan 150–200 ta elektr stansiyalari va issiqlik ta'minoti obyektlari) o'z ichiga oladi. Uglerod narxi 5–10 AQSh dollari/tCO₂ darajasida belgilanishi sanoat korxonalariga ortiqcha yuk tushirmasdan, texnologik modernizatsiya uchun iqtisodiy rag'bat yaratadi.

“Past ambitsiya” ssenariysi bo'yicha byudjet daromadlari yiliga taxminan 150–300 million AQSh dollari atrofida bo'lishi prognoz qilinadi, bu O'zbekiston YalMining 0,2–0,4 foizini tashkil etadi. Agar ushbu mablag'larning 80 foizi energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va toza texnologiyalarni joriy etish loyihalariga yo'naltirilsa, tizimning o'zini qoplash muddati sezilarli qisqaradi va qo'shimcha emissiya qisqarishi ta'minlanadi. Qolgan 20 foiz esa ijtimoiy kompensatsiya dasturlariga – energiya narxlari oshishi natijasida zarar ko'ruvchi kam ta'minlangan aholiga subsidiyalar va sanoat ishchilari uchun qayta tayyorlash dasturlariga yo'naltiriladi.

“O'rtacha ambitsiya” ssenariysi ETSning ikkinchi bosqichiga (2030-yildan keyin) mos keladi va energetikadan tashqari sement, metallurgiya va kimyo sanoati kabi yirik sanoat tarmoqlarini qamrab oladi. Bu ssenariy sezilarli darajada ko'proq emissiya qisqarishi (yiliga 18–25 million tonna CO₂) va yuqoriroq byudjet daromadlari (500–900 million AQSh dollari) imkonini beradi, biroq YalMga salbiy ta'sir ham kuchayadi (–0,2 dan –0,5 foizgacha). Ushbu ssenariy faqat pilot bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, MRV tizimi to'liq ishlayotgan va sanoat korxonalari adaptatsiya qilgan sharoitda maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Yuqori ambitsiya” ssenariysi 2035-yildan keyingi uzoq muddatli istiqbolni ifodalaydi. Bu ssenariy katta iqtisodiy imkoniyatlarni (yiliga 1,2–2,5 milliard AQSh dollari daromad) taqdim etsa-da, YalMga sezilarli salbiy ta'sir, sanoat raqobatbardoshligining pasayishi va uglerod oqishi (carbon leakage) xavfi mavjud – ya'ni korxonalarning emissiya cheklavlari past bo'lgan qo'shni mamlakatlarga ko'chib o'tishi mumkin.

Xarajatlar-foyda tahlili (CBA) natijalari. “Past ambitsiya” ssenariysi bo'yicha 2028–2040-yillar davomida (5 foiz diskont stavkasida) ETSni yaratish va boshqarishning kumulyativ xarajatlari taxminan 120–180 million AQSh dollari; korxonalarning muvofiqlik xarajatlari – 800–1200 million AQSh dollari; auktsion daromadlari – 1800–3600 million AQSh dollari; emissiya qisqarishning ijtimoiy foydasi (SCC hisobida) – 4900–7350 million AQSh dollari. Natijada sof ijobiy natija (net benefit) taxminan 4000–6000 million AQSh dollari atrofida prognoz qilinadi, foyda-xarajat nisbati (BCR) esa 3,5–5,0 ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich ETSni joriy etishning iqtisodiy jihatdan asoslanganligini tasdiqlaydi.

Sezuvchanlik tahlili natijalari. Asosiy parametrlarning o'zgarishiga natijalarning sezuvchanligi tekshirildi. Uglerod narxi 50 foizga pasayganda (5 AQSh dollari/tCO₂ o'rniga 2,5) foyda-xarajat nisbati 2,0–3,0 ga tushadi, biroq natija ijobiy qoladi. Diskont stavkasining 10 foizga ko'tarilishi NPVni taxminan 30 foizga kamaytiradi. Emissiya qisqarish sur'atining kutilganidan 30 foiz past bo'lishi BCRni 2,5–3,5 ga tushiradi. Barcha sezuvchanlik ssenariyalarida sof foyda ijobiy bo'lib qoladi, bu esa natijalarning barqarorligini ko'rsatadi.

ETSning turli sektorlarga ta'siri bir xil emas va bu farqlarni hisobga olish optimal dizaynni ishlab chiqish uchun muhimdir.

Energetika sektori. O'zbekiston energetika sektori umumiy emissiyaning 64 foizini beradi va asosan tabiiy gazga asoslangan. Sektorda taxminan 50 ta yirik issiqlik elektr stansiyasi va 100 dan ortiq issiqlik ta'minoti korxonasi faoliyat yuritadi [13]. ETS joriy etilishi bilan bu korxonalar emissiyani kamaytirish yoki kvotalar sotib olish o'rtasida tanlash imkoniga ega bo'ladi. Modellashtirish natijalariga ko'ra, 10 AQSh dollari/tCO₂ darajasidagi uglerod narxi energetika sektori xarajatlarini taxminan 3–5 foizga oshiradi, bu esa elektr energiyasi tariflariga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, 2026-yildan boshlab elektr energiyasi va gaz narxlarining ulgurji bozoriga o'tishi rejalashtirilganligi [17] bu ta'sirni qisman yumshatadi.

Sement sanoati. O'zbekistonda yiliga taxminan 15–18 million tonna sement ishlab chiqariladi va bu sektor energetika sektoridan keyingi eng yirik emittentdir. Sement ishlab chiqarishda 1 tonna mahsulotga taxminan 0,6–0,8 tonna CO₂ chiqadi, bunda jarayonli emissiya (kaltsiy karbonatning parchalanishi) katta ulush tutadi va uni texnologik jihatdan qisqartirish qiyin. 15 AQSh dollari/tCO₂ darajasidagi uglerod narxi sement narxini taxminan 8–12 foizga oshirishi mumkin, ammo eksport raqobatbardoshligiga ta'siri ahamiyatsiz, chunki O'zbekiston sementi asosan ichki bozor va qo'shni mamlakatlar uchun ishlab chiqariladi.

Metallurgiya sanoati. O'lka metallurgiya korxonalari – Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Bekobod metallurgiya kombinati va boshqalar – emissiya hajmi bo'yicha sanoat sektorida yetakchi o'rinlardan biridir. 2026-yildan kuchga kiradigan CBAM O'zbekiston metallurgiya eksportchilari uchun qo'shimcha yuk yaratadi [4]. Milliy ETSni joriy etish va uglerod to'lovlarini belgilash CBAM to'lovlarini kompensatsiya qilish imkonini beradi, chunki korxonalar ichki bozorda to'lagan uglerod to'lovi CBAM miqdoridan chegiriladi.


Kimyo sanoati. O'zbekiston kimyo sanoati, xususan o'g'it ishlab chiqarish (“Navoiy azot”, “Qo'qon superfosfat” va boshqalar), sezilarli hajmdagi issiqxona gazlari emissiyasiga mas'ul. Azot o'g'itlari ishlab chiqarishda ammoniak sintezi va azot kislotasi ishlab chiqarish jarayonlari katta hajmda CO₂ va N₂O chiqaradi.



Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan gazlarini qisqartirish uchun 20 million yevrolik dastur amalga oshirilmoqda [13]. ETS joriy etilganda kimyo sanoati korxonalari uchun maxsus intensivlik ko'rsatkichlari (benchmarks) belgilanishi zarur, bunda xalqaro eng yaxshi amaliyot (Best Available Technology – BAT) ko'rsatkichlari asos qilib olinadi.

O'zbekistonda ETS ning sektorlar bo'yicha potentsial emissiya qisqarishi

Past ambitsiya ssenariysi, 2030 yilga prognoz



1-rasm. O'zbekistonda ETS ning sektorlar bo'yicha potentsial emissiya qisqarishi (past ambitsiya ssenariysi, 2030-yilga prognoz)

[Rasm tavsifi: Dairaviy diagramma ko'rinishida: energetika sektori – 65% (5,2–7,8 mln t CO₂), sement sanoati – 15% (1,2–1,8 mln t CO₂), metallurgiya – 12% (0,96–1,44 mln t CO₂), kimyo sanoati – 8% (0,64–0,96 mln t CO₂). Har bir sektorning marjinal qisqartirish xarajatlari ham ko'rsatilgan: energetika – 5–15 AQSh dollari/tCO₂; sement – 10–20 AQSh dollari/tCO₂; metallurgiya – 15–30 AQSh dollari/tCO₂; kimyo sanoati – 10–25 AQSh dollari/tCO₂.]

Prioritet sektorlar: 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, energetika sektori eng katta emissiya qisqarish potentsialiga ega va marjinal xarajatlari eng past. Shu sababli, ETSning dastlabki bosqichida u prioritet hisoblanadi. Sement, metallurgiya va kimyo sanoati marjinal xarajatlari yuqori bo'lsa-da, texnologik modernizatsiya imkoniyatlari katta va ular ETSning ikkinchi bosqichida qamrab olinishi maqsadga muvofiq.

Chekklash turi: Boshlang'ich bosqichda Xitoy modeliga o'xshash intensivlikka asoslangan ko'rsatkichlar (emission intensity benchmarks) tavsiya etiladi. Bu yondashuv iqtisodiy o'sishni cheklamasdan texnologik modernizatsiyani rag'batlantiradi. 2030-yildan boshlab bosqichma-bosqich absolyut cheklavlarga (cap-and-trade) o'tish ko'zda tutiladi.

Kvota taqsimlash: Dastlabki bosqichda kvotalarning 80–90% bepul, 10–20% auksion orqali taqsimlanadi. Bepul taqsimlash sanoat raqobatbardoshligini saqlashga va korxonalarning tizimga adaptatsiyasini osonlashtirishga yordam beradi. Vaqt o'tishi bilan auksion ulushi har besh yilda 10–15 foiz punktga oshiriladi.

Narx barqarorlashtirish mexanizmlari: Uglerod narxining haddan tashqari past yoki yuqori bo'lishini oldini olish uchun minimal narx 3, maksimal narx 15 AQSh dollari/CO₂ darajasida belgilanadi. Bu EU ETSning birinchi bosqichidagi narxning past bo'lishi xatolaridan himoya qiladi.

Ofset mexanizmlari: Korxonalarga majburiyatning 5–10% ini qayta tiklanuvchi energiya va energiya samaradorligi loyihalaridan olingan uglerod kreditlari orqali bajarish imkoniyati beriladi. Bu ixtiyoriy uglerod bozori (Voluntary Carbon Market – VCM) segmentini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Xalqaro bozor tajribasi: O'zbekiston 2024-yil iyun oyida Jahon bankining Transformativ uglerod aktivlari fondi (TCAF) moliyalashtirgan iCRAFT loyihasi doirasida birinchi uglerod kreditlari to'lovini oldi – 500 ming tonna CO₂ qisqarish evaziga 7,5 million AQSh dollari. 2025-yil iyun oyida qo'shimcha 500 ming tonna CO₂ qisqarish evaziga yana 7,5 million AQSh dollari mablag' jalb qilindi. Shu bilan birga, 1 tonna CO₂ qisqarish uchun to'lov 15 AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich xalqaro ixtiyoriy uglerod bozori narxlari (10–25 AQSh dollari/tCO₂) bilan mos keladi.

Iqtisodiy samaradorlik: Agar O'zbekiston yiliga 8–12 mln tonna CO₂ qisqartirsa va bu kreditlarni 10–15 AQSh dollari/tCO₂ narxida sotsa, yillik qo'shimcha daromad 80–180 mln AQSh dollarini tashkil etishi mumkin. Bu ETS tizimini yaratish va boshqarish xarajatlaridan bir necha barobar ko'p.



ETS va uglerod solig'i: ETS emissiya hajmini aniq cheklash imkonini beradi, uglerod solig'i esa narx barqarorligini ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida ETSning afzalliklari: xalqaro savdo mexanizmlari bilan integratsiya, CBAM talablariga moslash va qo'shimcha daromad yaratish.

Energiya bozorining roli: Elektr energiyasi va tabiiy gaz narxlarining erkinlashtirilishi (2026-yildan) ETSning samarali ishlashini qo'llab-quvvatlaydi.

Xavflar va choralar: Uglerod oqishi (carbon leakage) xavfi, CBAM talablari va institutsional quvvat masalalari mavjud. Dastlabki bosqichda kvotalarning katta qismini bepul taqsimlash va sanoat raqobatbardoshligini himoya qilish tavsiya etiladi.

Kadr tayyorgarligi: ETSning samarali ishlashi uchun 2025–2027-yillarda kamida 300–500 mutaxassisni uglerod hisobga olish va ETS boshqaruvi bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlash zarur.

Ijtimoiy ta'sir va innovatsiya: ETS daromadlarining 15–20% ijtimoiy kompensatsiya dasturlariga, 30–40% energiya samaradorligi va toza texnologiyalar innovatsiya fondiga yo'naltiriladi. Bu fond mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari va KOBning yashil texnologiyalarga o'tishini qo'llab-quvvatlaydi.

Sektor qamrovi: Energetika va yirik sanoat korxonalari ETS bilan qamrab olinadi; transport, qurilish va kichik xo'jalik subyektlarida esa uglerod solig'i yoki boshqa mexanizmlar qo'llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda milliy uglerod savdosi tizimini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va istiqbollari tizimli tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon beradi:

1. ETSning iqtisodiy asoslanganligi:
 - o O'zbekistonda ETSni joriy etish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq.
 - o "Past ambitsiya" ssenariysi bo'yicha pilot ETS tizimi energetika sektorida 2030-yilga qadar yillik 8–12 mln tonna CO₂ emissiyani kamaytirishi va byudjetga yiliga 150–300 mln AQSh dollari daromad keltirishi mumkin.
 - o Uglerodning ijtimoiy qiymati (51 AQSh dollari/tCO₂) hisobiga ijtimoiy foyda tizim xarajatlarini bir necha barobar qoplaydi.
2. Boshlang'ich dizayn tavsiyalari:
 - o Eng maqbul boshlang'ich dizayn – intensivlikka asoslangan ko'rsatkichlar bilan energetika sektorida pilot ETS.
 - o Kvotalarning 80–90% bepul taqsimlanadi, price floor va price ceiling mexanizmi joriy etiladi, offset mexanizmi orqali moslashuvchanlik ta'minlanadi.
 - o Bu yondashuv EU ETS va Qozog'iston ETS tajribalaridan saboq olgan.
3. iCRAFT loyihasi tajribasi:
 - o Loyihaning muvaffaqiyati O'zbekistonning xalqaro uglerod bozorlariga kirish salohiyatini tasdiqlaydi.
 - o 1 tonna CO₂ qisqarish uchun 15 AQSh dollari olish xalqaro bozor narxlariga mos keladi va ETS doirasida yaratilgan uglerod kreditlarini eksport qilish imkoniyatlarini mustahkamlaydi.
4. Energiya bozorining roli:
 - o ETS samaradorligi energiya subsidiyalari islohi bilan chambarchas bog'liq.
 - o 2026-yildan energiya bozorining erkinlashtirilishi ETSning samarali ishlashi uchun zarur shart-sharoit yaratadi.
5. Gibril uglerod narxlash tizimi:
 - o ETSni mustaqil vosita sifatida emas, balki uglerod solig'i bilan uyg'unlashgan gibril tizim sifatida bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.
 - o Bu modelda ETS yirik energetika va sanoat korxonalarini qamrab oladi, uglerod solig'i esa transport, qurilish va kichik emissiya manbalariga qo'llaniladi.
 - o Yagona MRV tizimi va milliy reyestr orqali integratsiya amalga oshiriladi.
6. Huquqiy asoslar:
 - o 2025-yil iyuldagi PF-110-son Farmon xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish huquqiy asosini yaratdi.
 - o Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan maxsus Nizom ishlab chiqilishi lozim.

Tavsiyalar:

1. Davlat boshqaruvi organlari uchun:
 - Uch bosqichli ruxsat berish tizimi: Letter of No Objection, Letter of Approval va alohida kooperativ yondashuv avtorizatsiyasi.
 - NDC uchun saqlash normasi: verifikatsiyalangan uglerod birliklarining 20%ini NDC majburiyatlari uchun bloklash va Milliy reyestrda belgilash.



- Ruxsat etilgan standartlar: Gold Standard, Verified Carbon Standard, REDD+, Parij bitimi 6.4-moddasi mexanizmi.
 - Raqobatbardosh tanlov mexanizmi orqali loyiha xizmatlarini tanlash, xarajatlarni faqat uglerod birliklari sotilgandan keyin qoplash.
 - Daromad taqsimoti: kamida 80% energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va toza texnologiyalar loyihalariga, qolgan 20% ijtimoiy kompensatsiyaga.
 - Global majburiyatlar: Parij bitimi 6-moddasi talablariga muvofiqlik uchun verifikatsiyalangan uglerod birligining bir qismini bekor qilish tartibini belgilash.
 - Qo'shimcha qadamlar: Milliy reyestrni ishga tushirish, MRV tizimini barcha yirik korxonalarda joriy etish, pilot ETSni ishga tushirish, 2030-yildan sanoat sektorlarini qamrab olish, energiya subsidiyalarini isloh qilish, kamida 300–500 mutaxassisni tayyorlash.
2. Sanoat sektori uchun:
- Emissiyaning ixtiyoriy hisobga olishni hozirdanoq boshlash.
 - Belgilangan xalqaro standartlar doirasida ixtiyoriy uglerod kreditlash loyihalarini ishlab chiqish.
 - Ichki uglerod narxlash mexanizmi orqali ETS xarajatlari tayyorgarlik qilish.
 - CBAM talablariga muvofiq emissiya hisobotini yuritish.
3. Investorlar va xalqaro hamkorlar uchun:
- Belgilangan ruxsat berish tartibi va moliyaviy parametrlarni hisobga olgan holda loyiha iqtisodiyotini oldindan baholash.
 - Milliy reyestr infratuzilmasini yaratishda texnik va moliyaviy ko'mak ko'rsatish.
 - Pilot ETS va kadrlar tayyorlash dasturlarida metodologik yordam berish.
 - Parij bitimi 6-moddasi doirasida ikki tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish.
- Kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar:
- CGE modelini ishlab chiqish va ETSning makroiqtisodiy ta'sirini baholash.
 - NDC saqlash normasi va moliyaviy yig'implarning loyihalar rentabelligiga ta'sirini tahlil qilish.
 - Sektorlar bo'yicha marjinal qisqartirish xarajatlari (MAC) egri chiziqlarini tuzish.
 - Markaziy Osiyo mintaqasida birlashtirilgan uglerod bozori konsepsiyasini ilmiy asoslash.
 - ETS va boshqa iqlim siyosati instrumentlari (uglerod solig'i, yashil sertifikatlar, QTM subsidiyalari) o'rtasidagi o'zaro ta'sirni modellashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. International Carbon Action Partnership (ICAP). Emissions Trading Worldwide: Status Report 2024. Berlin: ICAP, 2024. 112 p.
2. O'zbekiston Respublikasi. Yangilangan Milliy miqyosda belgilangan hissasi (NDC). Toshkent, 2021. 45 b.
3. Ward, J. et al. Climate Public Expenditure and Institutional Review: Uzbekistan. UNDP, AFD, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Toshkent, 2023. 120 p.
4. European Commission. Regulation (EU) 2023/956 establishing a Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM). Brussels, 2023.
5. Nordhaus, W. Climate Change: The Ultimate Challenge for Economics. American Economic Review, 2019, Vol. 109, №6, P. 1991–2014.
6. Coase, R. The Problem of Social Cost. The Journal of Law and Economics, 1960, Vol. 3, P. 1–44.
7. Stiglitz, J. Addressing Climate Change through Price and Non-Price Interventions. European Economic Review, 2019, Vol. 119, P. 594–612.
8. Green, J. Does Carbon Pricing Reduce Emissions? A Review of Ex-Post Analyses. Environmental Research Letters, 2021, Vol. 16, №4, Art. 043004.
9. Li, Z. et al. Is Emissions Trading Scheme (ETS) an Effective Market-Incentivized Environmental Regulation Policy? Evidence from China's Eight ETS Pilots. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2022, Vol. 19, №6, Art. 3166.
10. Doda, B. Emissions Trading: Lessons Learnt from the EU Emissions Trading Scheme. Wiley Interdisciplinary Reviews: Climate Change, 2016, Vol. 7, №4, P. 583–595.
11. Norqulov, I., Xolbadalov, U. et al. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish: institutsional asoslar va moliyaviy mexanizmlar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022, №5, B. 15–28.
12. Interagency Working Group on Social Cost of Greenhouse Gases. Technical Support Document: Social Cost of Carbon, Methane, and Nitrous Oxide. Washington, D.C., 2021. 48 p.
13. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi. Issiqxona gazlari inventarizatsiyasi hisoboti. Toshkent, 2023.
14. European Environment Agency (EEA). Use of auctioning revenues generated under the EU Emissions Trading System [Elektron resurs], 2024. URL: <https://www.eea.europa.eu/en/analysis/indicators/use-of-auctioning-revenues-generated>
15. Asian Development Bank. The People's Republic of China's Emissions Trading Scheme. Asia-Pacific Climate Report 2024. Manila: ADB, 2024.



16. Goulder, L.H., Long, X., Qu, C., Zhang, D. China's New Nationwide CO2 Emissions Trading System: General Equilibrium Impacts. Journal of the Association of Environmental and Resource Economists, 2024.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-436-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6303230?ONDATE=03.12.2022%2000>
18. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 7-iyuldagi "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida" O'RQ-1073-son Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7616051>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 7-iyuldagi "Xalqaro uglerod birliklari bozorida ishtirok etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-110-son Farmoni. <https://lex.uz/pdfs/-7616191>
20. World Bank. Uzbekistan Receives \$7.5 Million in Carbon Credits for Enabling Half a Million Tons of Emissions Reduction [Elektron resurs], 2024. URL: <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/06/21/>
21. Qi, Y. et al. Does the emissions trading system in developing countries accelerate carbon leakage through OFDI? Evidence from China. Energy Economics, 2021, Vol. 101, Art. 105397.
22. Mamadaminov, U. O'zbekistonda uglerod bozorini shakllantirish istiqbollari: Yevropa iqtisodiyot kunlari dokladida ma'ruza. Gazeta.uz, 11 noyabr 2024.
23. World Bank. State and Trends of Carbon Pricing 2024. Washington, D.C.: World Bank Group, 2024. 112 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
